

FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR JURNALI

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

ISLOMOV Obidjon Komilovich

Mustaqil izlanuvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15103027>

TOJKISTON VA TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI O'RTASIDA HAMKORLIKNING ISTIQBOLLARI HAQIDA

ANNOTATSIYA

Maqolada Tojikiston va turkiy tilli davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning rivojlanish istiqbollari, muammolari jumladan, iqtisodiy, harbiy-texnik sohada hamkorlik, fan-ta'lim va madaniy madaniy va xavfsizlik jihatlari ko'rib chiqilgan. Tojikistonning xususan, mintaqaning xavfsizligini ta'minlashda turkiy tilli davlatlar tashkilotining o'rni va roli. Turkiyaning Markaziy Osiyoga ta'siri kuchayishi sharoitida mavjud muammolar va munosabatlarni yanada mustahkamlash istiqbollari baholangan.

Maqolada hamkorlik dinamikasi, yirik kuchlar raqobati va mintaqadagi davlatlarning ichki siyosatini hisobga olgan holda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Turkiya, Tojikiston, TDT, Markaziy Osiyo, Afg'oniston, mintaqaviy xavfsizlik, integratsiya, iqtisodiyot, ta'lim, madaniy hamkorlik, xavfsizlik.

О ПЕРСПЕКТИВАХ СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ ТАДЖИКИСТАНОМ И ОРГАНИЗАЦИЕЙ ТЮРКСКИХ ГОСУДАРСТВ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются перспективы и проблемы развития сотрудничества между Таджикистаном и тюркоязычными странами, включая сотрудничество в экономической, военно-технической сферах, а также аспекты науки, образования, культуры и безопасности. Место и роль Организации тюркоязычных государств в обеспечении безопасности Таджикистана, в частности региона. Дана оценка существующим проблемам и перспективам дальнейшего укрепления отношений в условиях усиления влияния Турции в Центральной Азии.

В статье анализируется динамика сотрудничества, конкуренция между крупными державами и внутренняя политика стран региона.

Ключевые слова: Турция, Таджикистан, ОТГ, Центральная Азия, Афганистан, региональная безопасность, интеграция, экономика, образование, культурное сотрудничество, безопасность.

ABOUT THE PROSPECTS FOR COOPERATION BETWEEN TAJIKISTAN AND THE ORGANIZATION OF TURKIC STATES

ANNOTATION

The article examines the prospects and challenges in developing cooperation between Tajikistan and Turkic-speaking countries, including collaboration in economic, military-technical, scientific-educational, cultural, and security spheres. It explores the role and significance of the Organization of Turkic States, particularly Tajikistan's involvement, in ensuring regional security. The article assesses existing issues and opportunities for strengthening relationships in the context of Turkey's growing influence in Central Asia.

The analysis takes into account the dynamics of cooperation, competition among major powers, and the domestic policies of countries in the region.

Keywords: Turkey, Tajikistan, Organization of Turkic States, Central Asia, Afghanistan, regional security, integration, economy, education, cultural cooperation, security.

Tojikistonning Turkiy davlatlar tashkiloti bilan hamkorligi shuqur tarixiy ildizlarga borib taqaladi. Tojikiston va Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) o'rtasidagi hamkorlik istiqbollari haqida gapirganda, bir nechta muhim jihatlarni ko'rib chiqish lozim. TDT hozirda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya va Ozarbayjon kabi turkiy tilli davlatlarni birlashtirgan xalqaro tashkilot bo'lib, Vengriya va Turkmaniston kuzatuvchi maqomida ishtirok etadi. Tojikiston esa eroniy tillar oilasiga mansub bo'lgan tojik tilida so'zlashuvchi davlat sifatida TDTning to'laqonli a'zosi sifatida kirishiga to'sqinlik qiladi.

Shu sababli, Tojikistonning ushbu tashkilot bilan hamkorligini bevosita a'zolikdan ko'ra, mintaqaviy hamkorlik va pragmatik manfaatlar doirasida rivojlantirib kelmoqda.

Hozirgi kunda Tojikiston TDT bilan rasmiy aloqalar o'natilmagan bo'lsada, lekin mintaqadagi qo'shni davlatlar – O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'iston – bilan iqtisodiy, madaniy va siyosiy aloqalarga ega. TDTning faoliyati asosan turkiy tilli xalqlar o'rtasidagi integratsiyani chuqurlashtirishga qaratilgan bo'lsa-da, tashkilotning "Turkiy dunyo nigohi – 2040" strategiyasi mintaqada tinchlik, barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashni ham o'z ichiga oladi. Bu esa Tojikiston kabi Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik uchun imkoniyatlar eshigini ochadi.

Mintaqaning xavfsizligini ta'minlashda Tojikiston va Turkiy davlatlar tashkiloti bilan hamkorlik istiqbollari va manfaatlar.

Markaziy Osiyo mintaqasida faqatgina Tojikiston tashkilot doirasidagi hamkorlikka oid ayrim loyihalardan chetda qolmoqda.

Xususan, mintaqada xavfsizlik masalalari bo'yicha Afg'onistondagi gumanitar inqiroz va Tolibon hukumati bilan aloqalarni yaxshilash, malakatdagi terrorchi guruhlar va ularning mintaqada xavfsizligiga tahdidlarini oldini olish, narkobiznes va transchegaraviy tahdidlarga qarshi kurashishda hamkorlikdagi muzokaralardan chetda qolib ketmoqda.

TDT doirasida Markaziy Osiyo mintaqasidagi xavfsizlik masalalari jumladan, Afg'oniston muammolarini Tojikistonning ishtirokisiz hal etishda samarasiz bo'lib qoladi. Mintaqaning to'laqonli a'zosi sifatida mintaqaga oid har qanday muammolarni Tojikistonning ishtirokisiz hal etilishi yoki muhokama qilinishi mamlakat manfaatlariga zid kelishi mumkin.

Shuningdek, mintaqada xavfsizlikni taminlashda transchegaraviy daryolardan foydalanish hamda chegara masalalarida delemitatsiya va demarkatsiyaga oid muammolarning saqlanib qolayotganligi, davlatlar o'rtasida davlatlar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan mojarolarni oldini olishda bitta tashkilot dirasida birlashishi foydali bo'lishi mumkin.

So'ngi yillarda TDT nizomiga ko'ra tashkilot aholisi turkiy tillarda so'zlashuvchi davlatlarni birlashtirishni nazarda tutgan bo'lsada, sekin-asta bu mezonga to'g'ri kelmaydigan davlatlarni ham taklif etish mavzusi ko'tarilmoqda.

Tojikiston va turkiy davlatlar o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash hamda tarixiy sivilizatsion va o'zaro madaniy yaqinlik aloqalarini hisobga olgan holda 2023- yil 13-iyul kuni Turkiya Tashqi siyosat instituti direktori Hussayn Bog'chi Xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha Markaziy Osiyo forumida "Tojikiston va Mo'g'iliston Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo bo'lishi kerak" degan fikrni ilgari surdi. Tashkilot doirasida mamlakatlar tomonlar o'rtasida o'zaro ishonch, do'stlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, mintaqada va uning tashqarisida tinchlikni ta'minlash va xavfsizlikni mustahkamlash, tashqi siyosat masalalari bo'yicha umumiy pozitsiyalarni qabul qilish, umumiy maqsadlarga taalluqli barcha sohalarida samarali mintaqaviy va ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, a'zo davlatlar o'rtasida savdo va investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratish Tojikiston uchun ham har tomonlama manfaatli bo'ladi. Bu tarzda kengayish tashkilotning imkoniyatlariga ta'sir qiladi va uning xalqaro maydonda pozitsiyasi kuchayishiga olib keladi.

Harbiy-texnik sohada hamkorlik.

Sobiq ittifoqning parchalinishi hamda Tojikistonning mustaqillikni qo'lga kiritgan ilk kunlaridanoq mamlakatdagi fuqarolar urushi natijasida mamlakat armiyasining mudofaa salohiyati ancha zaiflashishiga ta'sir ko'rsatdi. Natijada Tojikiston armiyasi mintaqada nobarqarorlik saqlanib qolayotgan sharoitda zamonaviy qurol yarog'ga muhtojlik sezila boshladi. Shu bilan birga qo'shni Afg'onistondagi nobarqaror vaziyat ham mamlakat xavfsizligiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Shunday vaziyatda Rossiya Federatsiyasi tomonidan zarur resurs va qurolli ko'mak berish maqsadida 201-armiya korpusi brigadasi Tojikiston hududiga joylashtirildi.

2022-yil boshlangan Rossiya-Ukraina urushi natijasida Rossiyaning butun e'tibori Ukrainadagi urushlarga qaratilgan bir paytda ikkinchi tomondan qo'shni Afg'oniston hududidan bo'layotgan tahdidlar fonida Tojikiston ham o'z armiyasini jangovar salohiyatini yanada kuchaytirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu bilan birga Xitoyning mamalakatda o'zining ta'sir doirasini mustahkamlash maqsadida katta miqdorda kreditlash va invitsitsiyalash bo'yicha yangidan yangi takliflarini bermoqda. Tojikistonning eng yaqin hamkorlaridan biri bo'lgan Eron Islom Respublikasi esa Yaqin Sharqdagi Isroil bilan bog'liq muaffaqiyatsizliklar hamda yadro dasturi bilan bog'liq AQSh va Yevropa Ittifoqining sanksiyalari ortidan ahvoli ancha yomanlashgan.

Turkiya esa bugungi kunda NATO ga a'zo mamlakat sifatida o'zining yetarlicha harbiy sanoatiga ega va bu borada jahonning yetakchi mamlakatlari qatoridan joy olgan. Markaziy Osiyo davlatlari ham bugungi zamonaviy qurolli mojarolardan yetarlicha xulosa qilgan holda aynan TDT doirasida Turkiya bilan hamkorlikda yangi qurol va UUA jamlanmalari bilan o'z mudofaa salohiyatlarini yanada takomillashtirmoqda. Xususan, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston bu borada allaqachon Turkiyaning Bayraktar TB-2 jangovar dronlari bilan o'z mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlagan. Bundan tashqari tashkilot doirasida turkiya Qurolli kuchlarining yetuk mutaxassisleri har yili NATO standartlari asosida jangovar tajribalarni a'zo mamlakatlar harbiy xizmatchilarini o'qitish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Tojikiston harbiy-texnikaviy hamkorlik sohada o'z xavfsizligini va mudofaa qobiliyatini yanada takomillashtirishda hamda faqatgina ma'lum bir davlat bog'liqligini kamaytirish soha faoliyatini devirsifikatsiya qilishida TDT bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi muhim omillardan biri bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy sohada hamkorlik

Ma'lumki Tojikiston ham Markaziy Osiyo mamlakatlarining aksariyat ko'pchiligi singari dengiz yo'liga chiqish uchun yopiq davlatlardan biri. Mamlakat foydali qazilmalarga boy, ammo butun hududning 94% tog'larda joylashganligi sababli resurslarni qazib olish qiyin. Infratuzilma rivojlanmagan, mamlakat chegaralari Yevroosiyo transport oqimlaridan uzoqda joylashgan.

Mamlakatning yagona va eng muhim qulayliklaridan biri suv resurslariga boyligidir. Markaziy Osiyodagi barcha suv oqimlarining qariyb 60% Tojikistonda hosil bo'ladi. Ekspertlarning fikriga ko'ra, mamlakatning potentsial gidroenergetika resurslari hozirda 300 TVt/soat darajasida.

Masalan, Turkmanistonda bu ko'rsatgich atigi 20 TVt/soat quvvat mavjud. Tojikistonning Vaxsh daryosi bo'yiga qurilayotgan Rog'un GES umumiy quvvati 3600 MVt bo'lgan oltita turbinaga ega bo'ladi. Qurilish tugallangach, yiliga 17,1 TVt/soat elektr ishlari ishlab chiqarilishi kutilmoqda. Keyinchalik bu kabi imkoniyatlarni kengaytirish hisobiga mamlakat yashil energiyani eksport qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqmoqda va bu loyihalardan biri bu KASA-1000 bo'lib, loyiha Markaziy Osiyo davlatlariga ortiqcha toza gidroenergiya eksportidan daromad olish imkonini beradi. Janubiy Osiyo davlatlarida esa elektr taqchilligini kamaytirishga yordam beradi.

Kaspiy dengizi orqali elektr uzatish tarmoqlari "Yashil yo'lak" tashabbusi TTDT doirasida hamkorlikni yanada rivojlantirishda Qozog'iston va O'zbekiston Kaspiy dengizi orqali Ozarbayjonga elektr uzatish liniyalarini qurishni kelishib oldilar. Bu orqali Markaziy Osiyoning qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan olingan elektr energiyasini Yevropaga eksport qilish imkoniyati yaratiladi. 2018-yilda Tojikiston Markaziy Osiyo yagona elektr energetika tizimiga (YEET) qayta ulandi. Tojikistonni "Yashil yo'lak" tashabbusiga integratsiya qilish orqali elektr energiyani Yevropaga eksport qilish imkoniyati tug'iladi va bu orqali iqtisodiyotini tiklashi va o'zi uchun yangi yo'laklarni yaratishi mumkin.

Tojikiston Respublikasi aholisi so'nggi o'n yilliklarda barqaror o'sish tendensiyasi bo'yicha Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida eng tez o'sib borayotgan mamlakat hisoblanadi. Aholisi soni 1991-yilda 5,3 million, 2016-yilda 8,551 million va 2024-yil ma'lumotlari bo'yicha 10,5 mln dan oshgan. Mamlakatda yuqori ishsizlik ko'rsatgichlariga ega. Shu sababli ham mamlakatda mehnatga yoroqli aholining ko'pchilik qismi Rossiya Federatsiyasida migrant sifatida ishlashga majbur. Shuningdek migrantlar tomonidan yuborilgan pullar mamlakat iqtisodiyotining muhim qismini tashkil qiladi. Pul o'tkazmalari YAIM ning 24 foiziga yoki 2,84 milliard AQSh dollariga to'g'ri keladi.

Lekin so'ngi vaqtlarda Rossiyada migranlarga nisbatan munosabatning keskinlashishi fonida joriy yilda Tojikiston fuqarolarining Rossiya Federatsiyasiga ish izlab borayotganlarning ulushi 60 % ga qisqardi va bu ishchilar tomonidan mamlakatga kirib keladigan valyuta miqdori keskin kamayaishiga olib keldi. Natijada, mamlakat fuqarolari ish topish uchun boshbqa muqobil yo'llarni izlashga majbur bo'lmoqdalar.

Bu xususida Tojikistonning Rossiya federatsiyasiga bog'ligini kamaytirish maqsadida TDT azoligi mamlakatga ko'plab imkoniyatlarni ochadi. Xususan, Turkiya, Ozarbayjon va Vengryada mehnat muhojirlariga yetarlicha ehtiyoj mavjud bo'lib, bu davlatlar orqali keyinchalik Yevropaning boshqa davlatlariga ham chiqish imkoniyati paydo bo'ladi. Tojikiston esa shu yo'l bilan o'z fuqarolarini chet elda ish bilan ta'minlashda zamin hozirlagan bo'lar edi.

Fan, ta'lim, va madaniyat sohalarida hamkorlik

Tojikiston Respublikasi tarixiy va sivilizatsiya nuqtai nazaridan hamda diniy va madaniy jihatlardan olib qaraganda turk dunyosi davlatlari bilan bir qancha o'xshash va yaqinligini alohida e'tirof etish o'rinli. TDT ga a'zo Turkiya, Ozarbayjaon va Markaziy Osiyoning to'rt davlatida yashaydigan xalqlar so'zlashadigan tillari bir-biridan unchalik farq qilmayda bu xalqlarning yana bir ajralmas qismi borki u ham bo'lsa tojiklardir. Bu xalqlar ikki tilda so'zlashsa-da, bir xil o'ylaydi, bir xil fikrlaydi, bir xil maqsad yo'lida mehnat qiladi, izlanadi. Bu xalqlar tarixi asrlar davomida shunday mustahkam ildizlar bilan bog'langanki, ularni bir-biridan ayro tasavvur qilish mushkuldir. Birgina misol sifatida buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning ikki tilda turkiy va forsiy tillarda ijod qilganligi buning yaqqol isbotidir.

Tojikiston va turkiy tilli davlatlar o'rtasidagi fan va ta'lim sohasidagi hamkorlik ko'p qirrali va rivojlanib borayotgan jarayondir. Turkiy tilli davlatlar, jumladan, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya va Ozarbayjon bilan Tojikiston o'rtasida fan-ta'lim va ilmiy sohada aloqalar o'rnatilgan. Bu hamkorlik doirasida ilmiy konferensiyalar va seminarlar tashkil etilmoqda. Masalan, Tojikiston Fanlar akademiyasi va turkiy tilli davlatlarning ilmiy muassasalari o'rtasida ilmiy almashinuvlar yo'lga qo'yilgan.

So'nggi yillarda Tojikiston va O'zbekiston fan va ta'lim sohaslarida hamkorlikni sezilarli darajada kengaytirdilar. 2024-yil aprel oyida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo'lib o'tgan O'zbekiston-Tojikiston oliy ta'lim muassasalari rektorlarining ikkinchi forumida ikki mamlakat o'rtasida 50 dan ortiq hamkorlik memorandumlari, bitim va "Yo'l xaritasi" imzolandi. Shuningdek Turkiyadagi "Yunus Emre Instituti" va "Turkiya stipendiyalari" Tojikiston yoshlarining ta'lim olishlari uchun turli grant dasturlari asosida imkoniyatlar yaratilgan. Ozarbayjon bilan ta'lim sohasida **Erasmus+ dasturi** asosida Kahramonmarash Sütchü Imam Universiteti (KSÜ) Markaziy Osiyo va Uzoq Sharqdan 18 ta universitet bilan talaba almashinuv dasturi bo'yicha kelishuv imzolagan. Ushbu kelishuvlar doirasida Tojikistondan 2 ta va Ozarbayjondan 2 ta universitet bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Tojikiston va turk dunyosi qadim-qadimdan yagona mintaqada va sivilizatsion birlikda yashab, diniy etiqodi, urf odat va ananalari, qadriyatlarini bir-biriga juda ham yaqin bo'lgan ikki xil tilda so'zlashuvchi bir elat bo'lib shakllandi. 1991-yilda Sovet Ittifoqi parchalanganidan so'ng Markaziy Osiyo mintaqasida 5 ta mustaqil davlat Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Tojikiston tashkil topdi. Anashu davrdan boshlab mamlakatlar mustaqil davlat sifatida barcha sohalarda o'zaro yaqin qo'shnichilik, hamkorlik va sheriklik aloqalarini mustahkamlab kelmoqdalar.

Xulosa qilib aytganda garchi tojiklar turkiy xalqlar tasnifaiga kirmasa-da, tarixiy va madaniy aloqalar (Somoniy davridagi umumiy meros, turkiy xalqlar bilan ko'p asrlik hamkorlik) Tojikiston uchun TDT bilan pragmatik munosabatlar o'rnatishga asos bo'la oladi. Xususan, bu aloqalar savdo, ta'lim va turizm sohaslarida ham foyda keltirishi mumkin.

So'nggi yillarda ekspertlar tomonidan Tojikiston va Mo'g'ulistonning TDT ga kuzatuvchi maqomini olgan holda kirishi haqida turli mulohazalar bildirilayotgan bo'lsada, bir nechta omillar sababli muammolarga duch kelishi mumkin. Tojikistonning TDT bilan yaqinlashishi Rossiya va Xitoy kabi boshqa yirik aktrlarning mintaqadagi manfaatlariga zid kelishi mumkin. Tojikiston Rossiyaning Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti (KXShT) va Xitoyning Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHT) doirasidagi majburiyatlari tufayli TDT bilan chuqur integratsiyaga kirishda cheklovlarga sabab bo'ladi.

Shuningdek, Tojikistonning ichki siyosiy muammolari va mintaqadagi ayrim davlatlar bilan o'zaro etnik va transchegaraviy daryolardan foydalanish hamda chegara bo'yicha muammolarning saqlanib qolayotganligi turkiy dunyo bilan aloqalarni yanada murakkablashtirishi mumkin. Shu kabi to'siqlarga qaramasdan, Tojikiston va turkiy tilli davlatlar bilan o'zaro manfaatli va istiqbolli hamkorligi ayniqsa iqtisodiyot va xavfsizlik yo'nalishlaridagi aloqalarini mustahkamlashga harakat qilib kelmoqda.

REFERENCES. ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ.

1. TurkicWorld, “Turkiy davlatlar tashkiloti: mintaqaviy iqtisodiyotni konstruktiv rivojlantirish omillari”, 27.11.2023 y. <https://turkic.world>
2. O‘zbekiston Prezidenti sayti, “TDT sammiti”, 11.11.2022 y. <https://president.uz/uz/lists/view/5637>
3. Tojikiston Statistik Agentligi, 2022-yil ma’lumotlari. <https://www.stat.tj>
4. Xalq so‘zi gazetasi Turkiy davlatlar tashkiloti: kecha va bugun 09.10.2022 y <https://xs.uz/uz/post/turkiy-davlatlar-tashkiloti-kecha-va-bugun>
5. “Xalqaro Xavfsizlik va Turkiy Dunyo”, muallif: Kaplan M., 2020 (Ankara Siyosiy Tadqiqotlar Instituti) <http://www.siyasi.arastirmalar.org/>
6. “Turkiyaning Markaziy Osiyodagi Xavfsizlik Siyosati”, Jumanov A., 2023, Ostona Universiteti <https://www.enu.kz/>
7. “Turkiyaning Markaziy Osiyodagi Tashqi Siyosati”, Aliyev R., 2020, Boku Davlat Universiteti <http://bsu.edu.az/>
8. “TDTning Madaniy Hamkorlikdagi Roli”, Rahimov B., 2021, Samarqand Davlat Universiteti <https://samdu.uz/>